

## IX. TASHQI SAVDO AYLANMASI


2025- yil yanvar-sentabr oylari uchun dastlabki ma'lumot

- I. Tashqi savdo aylanmasi
- II. Eksport hajmi
- III. Import hajmi
- IV. Metama'lumotlar
- V. Aloqador boshqa havolalar

### I. TASHQI SAVDO AYLANMASI

2025- yil yanvar-sentabr oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 1 831,0 mln AQSH dollariga yetdi va 2024- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 260,6 mln AQSH dollariga yoki 16,6 % ga ko'paydi.

**Tashqi savdo aylanmasi (mln AQSH dollari)**



TSAda eksport hajmi 701,7 mln AQSH dollariga (2024- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 11,6 % ga ko'paydi) va import hajmi 1 129,3 mln AQSH dollariga (19,9 % ga ko'paydi) yetdi. Hisobot davrida – 427,6 mln AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.

1.1-jadval

**Farg'ona viloyatining yirik hamkor davlatlar  
bilan tashqi savdo aylanmasi dinamikasi (mln AQSH dollari)**

Davlatlar	2023- y	2024- y	2025- y
Rossiya	400,9	464,4	587,1
XXR	438,8	485,8	552,2
Qozog'iston	168,4	145,9	179,0
Qirg'iz Respublikasi	85,0	80,9	88,9
Turkiya	70,1	89,0	85,3
Afg'oniston	35,5	44,7	48,6

			<i>davomi</i>
BAA	1,5	3,3	34,6
Litva	30,7	9,3	32,0
Latviya	5,4	7,6	25,3
Belarus	17,2	17,8	22,0
Tojikiston	31,4	22,0	19,0
Hindiston	20,0	16,7	16,5
Ukraina	3,4	2,8	14,1
Polsha	20,1	14,1	13,1
Turkmaniston	2,9	20,2	12,5
Italiya	12,8	14,8	11,8
Respublika Koreya	19,3	12,9	10,7
Pokiston	6,4	9,2	10,5
Eron	29,4	34,7	10,4
Germaniya	17,8	12,8	9,9

Farg'ona viloyati jahonning 84 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Rossiyada (32,1 %), XXRda (30,2 %), Qozog'istonda (9,8 %), Turkiyada (4,7 %) va Qirg'iz Respublikasida (4,9 %) qayd etilgan.


## II. FARG'ONA VILOYATINING EKSPORTI TARKIBI 2.1- jadval

Tarkibi	Mln AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2024- y	2025- y	2024- y	2025- y	2024- y	2025- y
<b>Jami eksport</b>	<b>628,8</b>	<b>701,7</b>	<b>120,1</b>	<b>111,6</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	280,5	318,7	127,1	113,6	44,6	45,4
Ichimliklar va tamaki	1,0	2,3	75,4	237,9	0,2	0,3
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	18,3	13,5	96,5	74,0	2,9	1,9
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	3,5	1,7	137,1	47,6	0,6	0,2
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,2	0,0	1492,9	2,7	0,0	0,0
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	54,8	125,5	236,5	228,9	8,7	17,9
Sanoat tovarlari	202,4	161,5	107,3	79,8	32,2	23,0
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	5,0	7,4	112,9	148,8	0,8	1,1
Turli xil tayyor buyumlar	54,0	60,2	92,4	111,7	8,5	8,7
Xizmatlar	9,2	10,9	173,0	118,2	1,5	1,5



Eksport tarkibida tovarlar ulushi 94,9 % ni tashkil etib, asosiy ulush oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (45,4 %), sanoat tovarlari (23,0 %), kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (17,9 %) va turli xil tayyor buyumlar (8,7 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Farg'ona viloyatining yirik eksportyor hamkor davlatlari**  
(mln AQSH dollari)



2025- yil yanvar-sentabr oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Rossiya (46,8 %), Qirg'iz Respublikasi (8,0 %), Turkiya (6,1 %), Afg'oniston (6,7 %), BAA (4,8 %), Qozog'iston (4,7 %), Litva (3,9 %), Latviya (3,6 %), Tojikiston (2,2 %) va XXR (1,9 %) kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 88,6 % ni tashkil etdi.

**Farg'ona viloyatining xsst bo'yicha eksporti tarkibi (2-xonali)**

2.2-jadval

XSST kodi	XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	O'sish sur'ati % da
<b>0</b>	<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>	<b>318 674,9</b>	<b>113,6</b>
05	Sabzavotlar va mevalar	283 210,5	115,0
04	Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	32 395,4	104,1
00	Tirik hayvonlar	1 236,0	92,0
07	Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	1 169,3	97,2
06	Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	324,1	86,9
02	Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	334,7	4,7 m.
09	Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	2,4	29,1
03	Baliq (dengiz sutemizuvchilari bo'lmagan), qisqichbaqasimonlar, mollyus-kalar va suvda suzuvchi umurtqasizlar va yarim tayyor mahsulotlar	2,2	42,4
08	Hayvonlar uchun ozuqalar	0,3	3,1
01	Go'sht va go'sht mahsulotlari	-	-
<b>1</b>	<b>Ichimliklar va tamaki</b>	<b>2 281,5</b>	<b>2,4 m.</b>
12	Tamaki va tamaki mahsulotlari	1 606,0	37 m.
11	Ichimliklar	675,5	73,7
<b>2</b>	<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>	<b>13 535,0</b>	<b>74,0</b>
26	To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	7 436,3	56,3
27	O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	2 520,2	2,7 m.
25	Qog'oz massasi va makulatura	1 639,5	68,0
28	Metall rudalari va metall parchalari	762,1	108,4
29	Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	711,1	118,1
22	Yog'li urug'lar va yog'li mevalar	420,3	97,7
23	Tabiiy kauchuk	45,5	8,5 m.



XSST kodi	XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	O'sish sur'ati % da
24	Probka va yog'och-taxtalar	-	-
<b>3</b>	<b>Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar</b>	<b>1 688,7</b>	<b>47,6</b>
33	Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	1 531,3	48,8
32	Ko'mir, koks va briketlar	157,4	38,6
<b>4</b>	<b>Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar</b>	<b>4,3</b>	<b>2,7</b>
42	O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	4,3	2,7
43	Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan; hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan mumlar	-	-
<b>5</b>	<b>Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar</b>	<b>125 495,0</b>	<b>2,3 m.</b>
56	O'g'itlar	110 113,4	2,5 m.
52	Noorganik kimyo moddalari	10 076,5	137,0
53	Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	2 399,7	132,9
55	Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; hojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	1 484,4	113,2
59	Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	657,7	150,4
57	Birlamchi shakldagi plastmassalar	468,4	4,4 m.
58	Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	197,9	2,6 m.
54	Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	97,0	101,0
51	Organik kimyo moddalari	-	-
<b>6</b>	<b>Sanoat tovarlari</b>	<b>161 493,8</b>	<b>79,8</b>
65	To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	126 740,6	71,6
66	Noruda qazilmalardan olingan mahsulotlar	26 424,0	156,2
63	Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	3 272,1	84,8
69	Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	3 244,8	128,7
64	Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	1 114,0	82,1
67	Cho'yan va po'lat	532,5	6,5 m.
68	Rangli metallar	93,8	33,0 m.
61	Teri, teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna	64,8	13,0
62	Boshqa joyda tasniflanmagan kauchuk mahsulotlar	7,2	15,2
<b>7</b>	<b>Mashinalar va transport asbob-uskunolari</b>	<b>7 424,0</b>	<b>148,0</b>
78	Avtomobililar (havo yostiichalari transport vositalari ham) shu jumladan:	3 087,2	2,0 m.
72	Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	2 450,7	141,7
77	Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari	956,3	96,2
74	Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	737,2	117,2
76	Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunolari	166,3	923,0 m.
73	Metallarni qayta ishlash mashinalari	20,6	3,0 m.
71	Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	5,6	7,5
75	Kanselyariya mashinalari va ma'lumotarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar	0,1	16,1
79	Boshqa transport uskunolari	-	-
<b>8</b>	<b>Turli xil tayyor mahsulotlar</b>	<b>60 249,9</b>	<b>117,0</b>
84	Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	45 457,2	105,0
89	Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	7 484,9	140,9
85	Poyabzal	4 096,3	148,9
83	Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	1 802,8	116,1
82	Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga oxshash tikilgan mebel	625,5	2,6 m.
81	Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	589,8	113,9
87	Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	178,7	57,9
88	Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyumlar, soatlar	14,8	46,0 m.



2025- yil yanvar-sentabr oylarida 349,5 ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatgich 2024- yilning mos davriga nisbatan 8,5 % yoki 27,4 ming tonnaga ko'paydi.


**Meva va sabzavotlar eksporti**

2.3-jadval

	2024		2025	
	Miqdori, tonnada	Ming AQSH dollar	Miqdori, tonnada	Ming AQSH dollar
<b>Jami</b>	<b>322 183,10</b>	<b>246 782,50</b>	<b>349 573,40</b>	<b>274 269,00</b>
<b>mevalar va rezavorlar</b>	<b>185 995,0</b>	<b>190 076,6</b>	<b>205 008,1</b>	<b>196 599,4</b>
Shaftoli	62 114,1	57 573,1	69 016,3	64 886,6
Uzum	45 894,0	39 837,0	63 676,0	62 956,2
Qashqar gilos	21 009,0	41 199,5	18 623,8	29 741,8
O'rik	41 478,3	37 854,60	36 479,8	24 800,3
Olxo'ri	13 715,7	10 587,8	14 111,0	8 601,5
Quritigan olxo'ri	1 783,9	3 024,6	3 101,2	5 613,0
<b>sabzavotlar</b>	<b>58 000,1</b>	<b>21 606,9</b>	<b>66 393,2</b>	<b>25 678,2</b>
piyoz	7 234,1	1 917,9	26 689,2	8 313,6
karam	25 283,8	8 108,6	18 143,1	7 047,7
pomidor	6 762,8	6 194,7	8 352,7	5 833,8
sabzi	17 898,0	4 145,8	11 678,2	2 314,1
qalampir	539,0	901,2	838,1	1 022,3
sarimsoq piyoz	282,4	338,7	691,9	1 146,7
mosh	2 145,3	1 606,2	2 635,1	2 457,0
yeryong'oq	328,3	875,6	702,8	2 415,7
<b>boshqalar</b>	<b>75 714,40</b>	<b>32 617,20</b>	<b>74 834,20</b>	<b>47 118,70</b>

2025-yil yanvar-sentabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 274,3 mln AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2024- yilning mos davriga nisbatan 11,1 % ga ko'paydi va jami eksportdagi ulushi 39,1 % ni tashkil etdi.

**Xizmatlar eksporti tarkibi (ming AQSH dollari)**



Xizmatlar eksporti hajmi 10,9 mln AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 1,5 % ini tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 18,2 % ga ko'paydi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport (35,2 %), moliyaviy xizmatlar (24,3 %), kompyuter va axborot (15,2 %) va safarlar (turizm) (25,3 %) telekommunikatsiya hissasiga to'g'ri kelgan.

### III. FARG'ONA VILOYATINING IMPORTI

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida import hajmi 1 129,3 mln AQSH dollariga yetdi va 2024- yilning mos davriga nisbatan 19,9 % ga ko'paydi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (31,5 %), mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar (20,4 %) va sanoat tovarlari (21,8 %) hisobiga to'g'ri keldi.


#### Farg'ona viloyatining importi tarkibi

3.1- jadval

XSST tarkibi	Mln AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan. % da	
	2024- y	2025- y	2024- y	2025- y	2024- y	2025- y
<b>Jami import</b>	<b>941,6</b>	<b>1 129,3</b>	<b>97,6</b>	<b>119,9</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	114,6	124,9	73,3	109,0	12,2	11,1
Ichimliklar va tamaki	2,1	1,5	176,4	70,3	0,2	0,1
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	29,5	49,9	91,8	169,2	3,1	4,4
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	146,3	230,5	158,3	157,6	15,5	20,4
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	7,9	11,1	97,4	140,4	0,8	1,0
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	56,5	78,2	76,0	138,3	6,0	6,9
Sanoat tovarlari	225,5	246,1	106,1	109,1	24,0	21,8
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	324,6	355,8	91,1	109,6	34,5	31,5
Turli xil tayyor buyumlar	32,6	29,9	114,8	92,0	3,5	2,7
Xizmatlar	2,0	1,4	84,8	67,1	0,2	0,1

Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2025- yilning yanvar-sentabr oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 188,4 mln AQSH dollariga ko'paydi va 1 127,9 mln AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 1,3 mln AQSH dollariga yetdi.

#### Farg'ona viloyatining yirik importyor hamkor davlatlari (mln AQSH dollari)





2025- yil yanvar-sentabr oylarida Farg'ona viloyati 72 ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yirik hamkor davlatlar XXR (47,7 %), Rossiya (22,9 %), Qozog'iston (12,9 %), Turkiya (3,8 %), Qirg'iz Respublikasi (2,9 %), Belarus (1,2 %), Italiya (0,8 %) va Koreya Respublikasi (0,8 %)ning jami importdagi ulushi 92,7 % ni tashkil etdi.

**Farg'ona viloyatining XSST\* bo'yicha importi tarkibi (2-xonali)**

3.2- jadval

XSST kodi	XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	O'sish sur'ati % da
<b>0</b>	<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>	<b>124 921,3</b>	<b>109,0</b>
04	Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	76 284,2	109,1
05	Sabzavotlar va mevalar	27 685,2	137,1
01	Go'sht va go'sht mahsulotlari	5 660,5	98,3
07	Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	4 553,1	90,3
08	Hayvonlar uchun ozuqalar	3 035,1	104,2
00	Tirik hayvonlar	3 290,1	54,6
06	Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	2 553,9	110,7
02	Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	1 244,1	109,7
09	Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	414,1	35,7
03	Baliq (dengiz sutemizuvchilari bo'lmagan), qisqichbaqasimonlar, mollyuskalar va suvda suzuvchi umurtqasizlar va yarim tayyor mahsulotlar	201,0	126,5
<b>1</b>	<b>Ichimliklar va tamaki</b>	<b>1 473,8</b>	<b>70,3</b>
11	Ichimliklar	1 473,8	70,3
12	Tamaki va tamaki mahsulotlari	-	-
<b>2</b>	<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>	<b>49 946,5</b>	<b>169,2</b>
24	Probka va yog'och-taxtalar	32 765,7	2,5 m.
27	O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	9 772,2	83,5
22	Yog'li urug'lar va yog'li mevalar	1 882,8	60,8
29	Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	792,4	187,6
25	Qog'oz massasi va makulatura	792,4	5,9 m.
26	To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	2 596,9	4,4 m.
23	Tabiiy kauchuk	813,0	158,9
28	Metall rudalari va metall parchalari	527,1	22,0 m.
21	Terilar, teri xomashyosi va mo'yna, ishlov berilmagan	4,0	-
<b>3</b>	<b>Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar</b>	<b>230 475,2</b>	<b>157,6</b>
33	Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	189 117,0	169,0
32	Ko'mir, koks va briketlar	31 138,5	98,5
34	Tabiiy yoki sun'iy gaz	10 219,6	3,7 m.
35	Elektr toki	-	-
<b>4</b>	<b>Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar</b>	<b>11 136,5</b>	<b>140,9</b>
42	O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	11 038,7	139,7
43	Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan; hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan mumlar	97,8	3,9 m.
41	Hayvonlarning yog'lari	-	-
<b>5</b>	<b>Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar</b>	<b>78 170,4</b>	<b>138,0</b>
57	Birlamchi shakldagi plastmassalar	15 727,2	148,7
53	Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	12 144,3	129,2
59	Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	11 232,8	127,9
56	O'g'itlar	11 053,2	165,0 m.
54	Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	8 672,0	102,2
55	Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; hojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	6 124,6	80,8



XSST kodini	XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	O'sish sur'ati % da
51	Organik kimyo moddalari	4 923,0	110,4
52	Noorganik kimyo moddalari	5 054,7	96,6
58	Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	3 238,5	167,9
<b>6</b>	<b>Sanoat tovarlari</b>	<b>246 117,2</b>	<b>109,1</b>
67	Cho'yan va po'lat	102 031,0	105,4
65	To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	36 772,2	114,3
63	Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	23 746,6	115,6
69	Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	25 643,4	79,8
62	Rezina buyumlari	18 685,7	141,3
66	Noruda qazilmalardan olingan mahsulotlar	18 290,7	103,1
64	Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	12 584,5	178,9
68	Rangli metallar	8 244,0	142,7
61	Teri, teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna	119,1	144,2
<b>7</b>	<b>Mashinalar va transport asbob-uskunolari</b>	<b>355 825,7</b>	<b>109,6</b>
72	Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	139 552,2	185,7
74	Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	57 132,4	110,9
78	Avtomobillar (havo yostiqlaridagi transport vositalari ham) shu jumladan:	61 483,2	93,6
77	Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari	40 703,4	38,8
76	Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunolari	28 857,7	2,8 m.
71	Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	15 044,3	153,8
75	Kanselyariya mashinalari va ma'lumotarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar	7 642,8	177,2
73	Metallarni qayta ishlash mashinalari	5 380,6	2,7 m.
79	Boshqa transport uskunolari	29,2	48,6
<b>8</b>	<b>Turli xil tayyor mahsulotlar</b>	<b>29 919,2</b>	<b>92,0</b>
89	Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	13 024,8	115,0
87	Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	5 876,9	59,9
81	Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	4 615,7	70,3
82	Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga oxshash tikilgan mebel	2 416,9	160,5
83	Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	1 541,4	104,8
85	Poyabzal	1 511,0	138,0
84	Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	761,0	128,4
88	Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyumlar, soatlar	171,5	105,9

2025- yilning yanvar-sentabr oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi 1,4 mln AQSH dollarini yoki jami import hajmining 0,1 % ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 32,9 % ga kamaydi.

#### Xizmatlar importi tarkibi (mln AQSH dollarida)

Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (100 %)ga tegishli bo'ldi.



#### IV. METAMA'LUMOTLAR

\*Tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (TIF TN) bilan birgalikda, BMTning Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

Tashqi savdo statistikasi, tovarlar va xizmatlar tashqi savdosi asosida shakllantiriladi: tovarlar tashqi savdosi statistikasini shakllantirishda dastlabki ma'lumotlar bo'lib, Bojxona qo'mitasining bojxona yuk deklaratsiyasining ma'lumotlari hamda Milliy statistika qo'mitasining rezedentdan norezedentga o'tuvchi, davlat chegarasini kesib o'tmaydigan va bojxona deklaratsiyasida hisobga olinmaydigan tovarlarni statistik kuzatuvlari hisoblanadi; tashqi savdo xizmatlar statistikasini shakllantirish statistika kuzatuvlari asosida amalga oshiriladi.

#### V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR

[Tashqi savdo aylanmasi hajmi \(yillik\)](#)

[Tashqi savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(yillik\)](#)

[Eksport hajmi \(mamlakatlar kesimida, yillik\)](#)

[Import hajmi \(mamlakatlar kesimida, yillik\)](#)

---

**Mas'ul:**  
Xizmatlar va savdo sohasi  
statistikasi bo'limi

**Manzil:** 150100, Farg'ona shahar,  
Oq yo'l ko'chasi, 104 a-uy  
**Pochta:** farstat@farstat.uz  
Tel: 73 241-98-82 (4090)

---